
10-Mavzu. Nutq nuqsonlariga ega bo‘lgan bolalarning shaxs xususiyatlari

Reja:

1. Shaxs haqida umumiy tushuncha, xarakter, qobiliyat, temperament, xulq faoliyati.
2. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning shaxs xususiyatlari.



Tayanch iboralar: Shaxs, xarakter, qobiliyat, temperament, xulq faoliyati, xususiyat, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik, jarayon, borliq, apatiya.

Shaxs haqida rus psixologi **S.Ya.Rubinshteynning** fikricha, odam o‘zidagi takrorlanmas xususiyatlarga ko‘ra individualdir. Odam o‘z atrofidagilarga, borliqqa bo‘lgan ongli munosabati, uning biror bir faoliyat bilan shug‘ullanishi esa uning shaxs ekanligidan dalolat beradi. Shaxs odamning atrofiga bo‘lgan munosabatlarini va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Odamning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlari uning dunyoqarashida, ishonchlarida va boshqalarga bo‘lgan munosabatlarida, eng muhimi uning faoliyatida ifodalanadi.

Shaxs — bu ongga ega bo‘lgan, ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy formatda yashaydigan, ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanadigan odam, individir. Shaxsning tarkib topishi uzoq muddatli, murakkab va tarixiy jarayondir.

Shaxs xususiyatlari ruhiy jarayonlarning kechishiga ta’sir etadi. Shaxsning yo‘nalganligi, qiziqishlari va boshqalar barcha ruhiy jarayonlariga tanlanganlik tabiatini kasb etadi. Shaxs xususiyatlari atrof-muhitni aks ettirishda ham ahamiyatga ega. Masalan, ayrim odamlar atrof-muhitni oson va tez idrok etsalar, boshqalar esa atrof-muhitni eshituv, harakat va boshqa analizatorlar yordamida idrok etadilar. Ruhiy jarayonlarni kechishi va shaxsning ruhiy xislatlari va holatlariga oliy asab tizimining tipologik va temperament xususiyatlari (xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik) ta’sir etadi, shuningdek, bu xususiyatlar insonning xulq-atvorida, odam faoliyati obrazida, hissiy-iroda jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarida aks etadi.

Shuningdek, bu xususiyatlar insonning xulq-atvorida, faoliyati obrazida, hissiy-iroda jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarida aks etadi.

Inson oliy asab tizimi faolyatining tipologik xususiyatlari bir butun holda nomoyon bo‘lib, insonning o‘ziga xos ichki dunyosini yoki xarakterini tashkil etadi. Shaxs o‘zini anglash xususiyatlariga ega. Katta yoshli inson atrofdagi xayotni bilish va bo‘layotgan voqea-hodisalarni baholash bilan cheklanmay u o‘zligini anglab, o‘z xulqini, rejalarini, faoliyatini baholaydi. Shaxs o‘z faolyatini boshqarish xususiyatiga ega.

Nutq nuqsoniga ega bolalar shaxs xususiyatlari


Bola bolalar jamoasida yashasa, unda o‘z nuqsonini kompensatsiya qilish maqsadida o‘zidan kichik yoshdagi bolalar bilan muloqot qiladi va ular ichida yetakchi rolini o‘ynaydi. Shuningdek, ular o‘z nuqsonlarini o‘zlari bajara oladigan faoliyat xisobiga kompensatsiya qilishga harakat qiladilar. Bu guruh bolalarida hissiy-iroda sohalarida ham kamchiliklar kuzatiladi. Ayrim bemorlarda bu kamchiliklar ruhiyatini yemirishi, tormozlanganlik holati, qo‘rquv, kayfiyatining tez-tez o‘zgarishi kabilarda namoyon bo‘lsa, ayrimlarda qo‘zg‘aluvchanlikni ortishi, asabiylashganlik, yig‘loqilik, atrofdagi odamlarga va muxitga nisbatan norozilik xislatlarida aks etadi, yana boshqalarda atrofdagi voqea-hodisalarga va odamlarga befarqlik, (apatiya) irodasizlik kabi xislatlarda ko‘zga tashlanadi. Bu barcha kamchiliklarning asosini bosh miya a’zolarining buzilishlari tashkil etadi. Nuqsonli bolalar o‘z nuqsonini qay darajada ekanligini anglash va uning oqibatlarini ko‘ra bilish darajasiga ko‘ra iztirob chekadilar. Intellekti va motorikasi qo‘pol buzilgan bolalar ko‘proq o‘z nuqsonlaridan iztirob chekadilar.

Bolani o‘z kuchiga ishonchsizlik tuyg‘usi va xulqidagi o‘zgarishlar ko‘proq darajada bolaning nuqsoniga nisbatan ota-onalar va yaqin qarindoshlarining munosobatlariga bog‘liq. Ota-onalar bolaning o‘rniga barcha ishlarni bajarishga harakat qiladilar va buning oqibatida bolada tobelik, boqimandalik xislari uyg‘onadi

va u o‘zgalar yordamisiz biror bir faoliyatni bajara olmaydi. Bola faoliyatga extiyoj sezmaydi.

Ko‘p hollarda alaliyaning og‘ir ko‘rinishlari aqli zaiflik bilan almashtiriladi, bunda nutq bilan birgalikda bolaning ruhiy rivojlanishi orqada qoladi. Agar bunday nutq nuqsoni oligofreniya bilan birgalikda kelsa, bolaning muloqotga kirishish faolligi yetarlicha rivojlanmaydi. Ijtimoiy muhit bolaning nutqiy rivojlanishiga salbiy yoki ijobiy ta’sir etishi mumkin. Noto‘g‘ri tarbiya ko‘p hollarda bola bilan muloqotga kirishish uchun harakatlarining zoe ketishiga sabab bo‘ladi. Agar bolani yaqin kishilar tushunishga harakat qilishmasa, bola bunga asabiylashgan holda javob qiladi va bu ayrim hollarda aqli zaiflik belgilariga o‘xshab ketadi.

Odatda kichik yoshdagi bolalar, agar duduqlanish juda kuchli bo‘lmasa, o‘z nuqsonlarini anglab yetmaydilar. Agar duduqlanish biror bir hodisadan so‘ng to‘satdan yuz bersa, bunda bola bu holat va nutq muloqotining chegaralanishida qattiq ta’sirlanadi, tushkunlikka tushadi. Ayrim xollarda bola bunday vaziyatda umuman gapirmay qo‘yadi va duduqlanishning birinchi belgisi mutizm bo‘lishi mumkin.



Yu.F. Garkusha va V.V.Korjavina (2001) aloqa sheriklarini tanlashda turli sabablarga ega bo‘lgan to‘rtta bolalar guruhini aniqladilar:

- tanlash uchun ongli motivga ega bo‘lmagan, o‘z sherigiga ijobiy munosabatining sabablarini tushuntira olmaydigan bolalar;
- o‘z tengdoshlariga nisbatan umumiy ijobiy munosabatni ta’kidlaydigan bolalar;
- muloqot sherigini tanlashda uning guruhdagi ijobiy xulq-atvoriga tayanadigan bolalar;
- o‘z tanlovini birgalikdagi faoliyatga qiziqish bilan tushuntiradigan yoki tengdoshlarining birgalikdagi faoliyatda namoyon bo‘ladigan ijobiy fazilatlarini ta’kidlaydigan bolalar.

Mualliflar kattalarga bo‘lgan munosabatining xususiyatlariga asoslanib, bolalarning uchta asosiy guruhini ajratib ko‘rsatadilar:

- Kattalarga nisbatan aniq ijobiy yo‘naltirilganligi, ota-onalari va o‘qituvchilarining sevgisiga ishonchi bilan ajralib turadigan hissiy sezgir bolalar. Ular kattalarning o‘zlariga bo‘lgan munosabatini etarli darajada baholaydilar, lekin kattalarning xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlarga juda sezgir, bu esa hissiy tajribalarga olib keladi.
- Kattalarning pedagogik ta’siriga salbiy munosabat bilan ajralib turadigan hissiy jihatdan javob bermaydigan bolalar. Ushbu maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘pincha tartibni, intizomni buzadilar, belgilangan me’yorlarga rioya qilmaydilar. Ota-onalar o‘zlarining itoatsizligidan shikoyat qiladilar. O‘zlariga nisbatan aybdor munosabatni qabul qilib, bolalar befarqlik yoki sovuqqonlik bilan javob beradilar.
- Kattalar va ularning talablariga nisbatan neytral munosabatda bo‘lgan, kattalar bilan muloqotda faollik va tashabbus ko‘rsatmaydigan (onadan tashqari) bolalar bog‘chasi guruhi hayotida passiv rol o‘ynaydi. Tashqi tomondan, ular deyarli shaxsiy tajribalarini ifoda etmaydilar, bu ularning his-tuyg‘ularini tashqi ifodalashda tajribasi yo‘qligini ko‘rsatadi.

Og‘ir nutq nuqsonlarida kuzatilgan jiddiy qiyinchiliklar ularning boshqalar bilan muloqotiga salbiy ta’sir qiladi. Ushbu toifadagi bolalarda nutq va muloqot qobiliyatlarining o‘zaro bog‘liqligi nutq rivojlanishining, lug‘at boyligining

kambag‘alligi, og‘zaki lug‘atning aniq yetishmasligi, umuman olganda, og‘ir nutq patologiyasi bo‘lgan bolalarning kommunikativ imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanganligi va har jihatdan normadan sezilarli darajada past ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- Ayupova M.Yu. Logopediya T.,2007.
- Денисова О.А.Детская психология. М.,2008.
- Калягин Б.А. Логопсихология. М.,2005.
- Mo‘minova L.R. , Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. T.,2013.
- Трошин О.В., Жулина Е.В. Логопсихология. М.,2005.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Shaxs xususiyatlariga nimalar kiradi?
2. Nutq nuqsoniga ega bolalar shaxs xususiyatlariga qanday tavsif berish mumkin?
3. Nutq nuqsoniga ega bolalar faoliyatida shaxslararo munosabat kimlarga bog‘liq?
4. Ijtimoiy muhitning munosabati nutqiy nuqsonga ega bolalarga nimalarni beradi?
5. Duduqlanuvchi bolalar ta’lim-tarbiya jarayonidagi jamoa munosabatida yuzaga keladigan muammolar nimalardan iborat?